



*Abdivali ESHKOBILOV,*  
*SamDCHTI dotsenti, PhD*  
*E-mail: abduvali@gmail.com*

*SamDCHTI professori O.G‘aybullayev taqrizi asosida*

### I. S. TURGENEVNING “ARAF” ROMANI ONOMAPOETIKASI VA O‘ZBEKCHA TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Maqola XIX asr rus adabiyoti oltin davrining yorqin vakili I.S.Turgenevning o‘z davri uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan “Arafa” romanida qo‘llanilgan atoqli otlar onomapoetikasi, etimologiyasi, badiiy matnda ifodalangan pragmatik mazmuni hamda asarning o‘zbekcha tarjimasida onomapoetik xususiyatlar va pragmatik mazmunning saqlanishi qiyosiy planda tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi roman, onomapoetika, ismlar etimologiyasi, pragmatik mazmun, “gapiruvchi ismlar”.

### СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОНОМАПОЭТИКИ РОМАНА И. С. ТУРГЕНЕВА «АРАФА» И ЕГО ПЕРЕВОДА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

Статья посвящена сравнительному анализу ономапоэтики имен существительных, этимологии и прагматического значения выраженных в романе “Накануне”, яркого представителя золотого периода русской литературы XIX века И.С.Тургенева, а так же сохранения онопоэтических свойств и прагматического содержания текста в переводе на узбекский язык.

**Ключевые слова:** Новый роман, ономапоэтика, этимология имен, прагматическое значение, “говорящие имена”.

### COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ONOMAPOETICS OF I. S. TURGENEV'S NOVEL "ARAF" AND ITS UZBEKISTAN TRANSLATION

Annotation

The article is devoted to a comparative analysis of the onomapoetics of nouns, their etymology and pragmatic meaning expressed in the novel “On the Eve” by I.S. Turgenev, a prominent representative of the golden period of Russian literature of the 19th century, as well as preserving the onomapoetic properties and pragmatic content of the text in translation into the Uzbek language.

**Key words:** New novel, onomapoetics, etymology of names, pragmatic meaning, “speaking names”.

**Kirish.** L.V.SHerba 1974 yilda atoqli otlarni nafaqat qomusiy lug‘atlarga, balki izohli lug‘atlarga ham kiritishni taklif qilganida, u atoqli otlarda ma‘no-mazmun mavjudligini nazarda tutgan edi.[1] Atoqli otlarning izohi, albatta, juda umumiy bo‘lishi mumkin: “Markaziy Osiyo – yer yuzining bir qismi” yoki “Anni Olimxon – Daxoro podshohlaridan biri”. Biroq u yoki bu predmetning o‘ziga xos xususiyatlari tegishli atoqli otning mazmuniga qo‘shilishi mumkin. “Markaziy Osiyo” so‘zi qandaydir alohida belgilariga ega bo‘lib qolishi gumon (bu yerdagi issiq havo yoki deydik paxta yetishtirilishi kabilarini faqat shu joyga xos alohida xususiyat xisoblash mumkin emas). Biroq, L.V.SHerbaning ta’kidlashicha, “Evropa” so‘zi, shubhasiz, rivojlangan tamaddun mamlakatlari, - kabi tilda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi, u bilan bog‘liq “evropacha uslub”, “evropacha nazokat” va boshqalarni hosil qilish mumkin. Va leksikografiyaning eng murakkab vazifalaridan biri – u yoki bu atoqli otni ma‘lum bir tushuncha ostida izohlashdir. Bu shaxsiy tanlov yoxud did bilan bog‘liq tarzda amalga oshirilishi mumkin emas: bunda ushbu jamiyat tilida ishlar qanday ekanligini inobatga olishga to‘g‘ri keladi.

S.Kripke atoqli otlar referensiyasi mexanizmini izohlashda “identifikatsiyalovchi deskripsiyalar tamoyilidan” voz kechadi [2]. Uning fikricha, atoqli otlar ular bilan assotsiatsiyalanadigan deskripsiyalardan qat’iy nazar, o‘z referensiyalarini amalga oshirishadi. Turli jamiyatlarda va turli odamlarda Arastu shaxsi va ismi bilan bog‘liq tasavvurlar qanchalik o‘zaro farqlanmasin, davrlar almashinishi davomida uning xossalari keskin o‘zgarib turgan bo‘lsada, Arastu Arastu bo‘lib qolaveradi. Go‘dakka ota-onasining xohishiga ko‘ra ism

qo‘yiladi, uning kelajakda ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan fazilatlariga qarab o‘tirilmaydi.

A.L. Bem rus adabiyotida, xususan, F.M.Dostoyevskiy romanlarida antroponimlar tanlovining tizimla tarzda amalga oshirilganligini e’tirof etib, shunday yozadi: “Bir qarashda ismlar tanlovi mutlaqo tasodifiy ko‘ringan joyda, yaqindan olib qaralsa, yozuvchining munosabatida to‘laqonli ongli yondoshuv ko‘zga tashlanadi”.[3] Ushbu fikrni biz to‘lasincha I.S.Turgenev ijodiga nisbatan ham tatbiq eta olamiz. Zero, uning roman va qissalaridagi ismlar, antroponimlar, hatto bir yoki ikki-uch martagina, epizodik qo‘llanilganlari ham o‘z mazmun-ma’nosiga ega. Bundan tashqari, antroponimlar romanning lug‘aviy ufqlari bilan yaxlit bog‘lanib, u bilan semantik jixatdan bir butunlikka aloqador bo‘ladi. Otlar badiiy asarda o‘zining ramziy ma’nosini cheksiz kuchaytiradi, chunki avval boshdan yaxlit badiiy tizimning bir qismi sifatida fikr qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** XIX asrning 50-yillari oxirida Rossiya va Yevropada sodir bo‘lgan voqealar rus adabiyoti oldiga millat manfaati yo‘lida o‘zini qurbon qilishga tayyor bo‘lgan jamoat arbobini, haqiqiy qaxramon shaxsni tasvirlash vazifasini qo‘yadi. O‘z davrining san’atkor-solnomachisi sifatida I.S.Turgenev ham bu vazifani bajarishga kirishib yangi qaxramonini demokrat-raznochinetlar davrasidan tanlaydi. Shu tariqa uning mashhur romanlari “Arafa” (“Nakanune”, 1860) va “Otlar va bolalar” (“Otsi i deti”, 1862) yaratiladi.

“Arafa” romani asosida real tarixiy voqealar yotadi: pomeschik Karatayev va bolgar yigiti Katranovning (asar

qaxramoni Insarovning prototipi) rus qizi bilan munosabatlari. Bunda qiz bolgar yigitini tanlaydi.

Roman Rossiya dehqonlar reformasini amalga oshirish arafasida yaratiladi. Asar g'oyasi nihoyatda vatanparvarlik ruhiga yo'g'rilgan. Bu roman ustida ishlash davomida Turgenevning maqsadi dehqonlarni ozod qilish borasidagi umummilliy xarakterda rus jamiyatining barcha sog'lom kuchlarini birlashtirishga chaqirish bo'lgan.

**Tahlil va natijalar.** Turgenevning o'zi shunday ta'kidlaydi: "Mening qissam asosida ongli-qaxramonlarga bo'lgan zarurat fikri yotadi... bundaylar ish oldinga siljishi uchun kerak" [4]. Romanda bunday natural sirasiga Dmitriy Nikonovich Insarov va Yelena Nikolayevna Staxova kiradi. Dmitriy otasining ismi Nikanor "g'alabani ko'rmoq" (Petr., S. 165) [5], Insarov familiyasi arabcha "Insar" – "g'olib, g'alaba qozonuvchi" (Petr., S.472) ma'nosini anglatadi. Natijada onomapoetik zanjir paydo bo'ladi: hosildorlik ma'budasi Demetra nafaqat donishmandlik, adolat, ozodlik "urug'ini" sepadi va sevimli qizning sevgisi va qo'li uchun kurashishda "g'alabani ko'radi", "g'alabaga erishadi". Qiz esa "yorqin don" (Elena – nur, yorug'lik, Staxova - bug'doy), uning o'nib o'sishiga "ma'buda Demetraning o'g'li" sababchi bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, romanning nafaqat "gapiruvchi", balki "qichqiruvchi" bu ikki qaxramoni taqdirleri birlashishi kerak edi.

Ongli-qaxramon naturalarning zarurligi haqidagi fikr "Arafa" romani mazmuniga pand-nasixat ohangini beradi, bu esa yozuvchining oldingi romanlariga xos emas va bu esa ma'lum ma'noda asar tuzilishiga, unda tasvirlangan xarakterlar talqiniga ta'sir ko'rsatadi.

Qayd etish lozimki, bizningcha, bu jixat turgenevshunoslikda kichkina ixtiro, yangilik bo'lib, qaxramonlarning o'zaro munosabati zamirida antik madaniyatga xos "janjal olmasi" muammosining transformatsiyalangan shakli yotadi. Bu yerda Paris olmani berishi kerak bo'lgan uch ayol o'rnida uch erkak namoyon bo'ladi. Olma beruvchi sifatida ayol-qiz bola, uning ismi Yelena tasvirlanadi. Ta'kidlash lozimki, olma motivi romanning ilk sahifalarida paydo bo'ladi: "qalb olma emas; bo'laklarga bo'linmaydi". [6] Bu mashhur Gomeraga tegishli motiv "Iliada" dostonida keltiriladi. Turgenev o'z qaxramonlarini bo'rttirib tasvirlashida avval boshdan butun roman davomida qaxramonning kayfiyati va hatti-xarakatini belgilab beruvchi ma'naviy-ahloqiy idealni ta'kidlab ko'rsatadi. Birinchi bobda Pavel Yakovlevich Shubin hamda Andrey Petrovich Bersenev shu tarzda tasvirlanadi. Pavel ismi muallifning oldingi asarlarida uchragan edi, Yakovlevich Yakov ismidan yasalgan bo'lib, "kimningdir ortidan ergashuvchi" (Petr., S.235), ya'ni ikkinchi ma'nosini bildiradi. Bu mantiq yozuvchi g'oyasiga mos keladi: asarda Shubin yoki Shubin-ikkinchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu fikrimizning isboti sifatida Turgenev onomapoetikasini tahlil qilishga va idrok etishga xarakter qilgan L.M.Lotman mulohazalariga murojaat etamiz. "O'z qaxramoni-san'atkor Shubinni (aniqrog'i, u xaykaltarosh-A.E. ) buyuk rus xaykaltaroshi ismi-sharifi bilan atab, Turgenev uning portretiga Karl Bryullov qiyofasini eslatuvchi jozibador xususiyatlarni bag'ishlaydi – u kuchli, abjir oq tusli kishi" [7]

Ana shu yerda muallif I.S.Turgenevning yozuvi sifatida asarning umumiy pafosi-ruhiyatiga singdirilgan kinoya-ironiyani ta'kidlash lozim. To'g'ri, L.M.Lotman haq, ism buyuk xaykaltarosh ismiga aloqador, biroq matnda aytganimiz-kinoya, piching mavjud: "Ko'rinishdagi shu nuqsonlariga qaramay, uning yaxshi tarbiya ko'rgan odam ekanini e'tirof qilmay bo'lmaydi; uning butun shu beo'xshov ko'rinishida «andisha» alomati bor edi, uning ko'rimsiz, xatto sal g'alatiroq yuzida xam mutafakkirlik va oliyanoblik ko'rinib turardi. Bu yigitni Andrey Petrovich Bersenev, uning o'rtog'i, mallasochli yosh yigitni esa Pavel Yakovlevich

Shubin der edilar." (4-5 s.) [8] Endi ushbu iqtibosning originalini keltiramiz: "So vsem tem nelzya bilo ne priznat v nem xorosho vospitannogo cheloveka; otechatok «poryadochnosti» zamechalsya vo vsem yego neuklyujem sushestve, i litso yego, nekrasivoeye i daje neskolko smeshnoeye, virajalo privichku mislit i dobrotu. Zvali yego Andreyem Petrovichem Bersenevim; yego tovarish, belokuriy molodoy chelovek, prozivalsya Shubinim, Pavlom Yakovlevichem"[9] (2 s.). Keltirilgan parchalarda yozuvchining qanchalik portret yaratishdagi antitezalardan foydalanishga bo'lgan qat'iy intilishini kuzatamiz: "poryadochnost... v yego neuklyujom sushestve", "i litso yego, nekrasivoeye i daje neskolko smeshnoeye, virajalo privichku mislit i dobrotu", biroq roman tarjimoni Y. Shamsharov ijodkorning so'z tanlashiga, yozish manerasiga e'tibor qaratmaydi.

Badiiy matnning mazmuniy pragmatikasini hosil qiluvchi uslub, muallif nutqi tuzilishi va xatto so'z tanlash mahorati go'yo mutarjim nazaridan chetda qoladi. Aks holda ushbu keltirilgan parchadagi so'z qisqartishlarining mantiqini izohlab bo'lmaydi. Bu yerda so'zlar asar matnidagi kelib chiqib emas, tarjimon tomonidan balki ixtiyoriy, erkin o'girilganligini kuzatamiz, aks holda ushbu tarjimalarni qanday sharhlash mumkin: "v yego neuklyujom sushestve"- "beo'xshov ko'rinish", "litso yego, nekrasivoeye i daje neskolko smeshnoeye" - "uning ko'rimsiz, xatto sal g'alatiroq yuzi", "virajalo privichku mislit i dobrotu" - "mutafakkirlik va oliyanoblik ko'rinib turardi". Birinchi birikmada yozuvchi "sushestvo"- "jonvor, mahluq, allambalo" mazmunidagi pragmatik ma'noni anglatuvchi kuchli badiiy birikmani ishlatadi, tarjimon esa uni oddiygina "beo'xshov ko'rinish" iborasi bilan o'girib, badiiy saviyasini tushirib yuboradi; keyingi ibora "nekrasivoeye, daje neskolko smeshnoeye", jonli og'zaki rus tilidagi mazmuni nihoyatda chuqur, biron bir shaxsga, uning qiyofasiga nisbatan o'ta past bahoni, ishonchsizlik ma'nosini ifodalaydi, o'zbek tilida "ko'rimsiz, xatto sal g'alatiroq yuzi" tarzida berilishi matnning birlamchi pragmatik mazmunidan butunlay uzoqlashtirib yuboradi. Shuningdek, "prvichku mislit" iborasi –donishmandlik deygani emasda, balki fikrlash ko'nikmasi, odati ham borligidan dalolat, donishmandlik esa insonning doimiy fazilati ekanligi ma'lum. Keyingi jumla I.S.Turgenevning so'z qo'llashidagi mahorati yuqoridagi fikrimizni to'liq isbotlaydi: "Zvali yego Andreyem Petrovichem Bersenevim; yego tovarish, belokuriy molodoy chelovek, prozivalsya Shubinim, Pavlom Yakovlevichem". Ushbu gaplarda muallifning so'z qo'llash mahoratiga e'tibor qaratar ekanimiz, zero aynan shunday o'rinlar uning badiiy mahorati, uslubi, manerisi va boshqa qator fazilatlaridan tortib, xatto asar janrining belgilashga ham xizmat qiladigan jixatlar namoyon bo'ladi. Demak, nega yozuvchi Bersenevning ismi-sharifini oldin so'ngra familiyasini, Shubinning dastlab familiyasini, vergul bilan ajratgan holda, ya'ni mantiqiy urg'u berib, keyin ismi-sharifini keltirib tanishtiradi? Albatta bunda chuqur pragmatik mazmun zohir. Muallif shu taxlit o'z qaxramonlariga nisbatan munosabatini ko'rsatadi, asarning, yoki qaxramon xarakterining umumiy badiiy –estetik g'oyasiga ishora qiladi. Keyingi jumladagi Bersenevga nisbatan "zvali atashardi" fe'li deyarlik betaraf lisoniy birlik bo'lsa, Shubinga nisbatan qo'llangan "prozivalsya" – "laqabi edi" birligi, kuchli emotsional-hissiy ta'sirchilik kuchiga, pragmatik mohiyatga ega. Tarjimon esa har ikki birlikni tushirib qoldiradi va "der edilar" tarzida oddiy, hech bir pragmatik ma'no kasb etmaydigan jo'n birlikni qo'llaydi. Shubin familiyasining etimologiyasida ham, biz sanab o'tganlarimizdan tashqari, laqabga ishora mavjud: shubin-shuba, qalin jo'n po'stin ma'nosiga ham ega bo'lib, uning zamirida sirlik, yashirinlik, yovvoyi his-tuyg'ular egasi bo'lgan kishiga nisbatan ishora kuzatiladi. U aynan shunaqa

xarakterli personaj, tarjimonning o'zi istagan yoki topa bilgan so'zlardan foydalanishi amalda asar matnining badiiy saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Bersenev ismi-sharifi yozuvchi asarlarida takror va takror uchraydi. Agar L.M.Lotman taxmini to'g'ri deb bilsak, unda biz ham Bersenev familiyasi borasida o'z fikrimizni bildira olamiz: bu familiyani yozuvchi o'z qaxramoniga bu ism-sharif egasi bo'lgan real rus-grevyori-rassomi, uyma graviyuralar ustasi, nozik didli usta Ivan Alekseyevich Bersenevdan (1762-1789) o'zlashtirgan.

Agar romanning birinchi bobida Shubin va Bersenevlarining xayotiy shiorlari belgilangan bo'lsa, Yelenaning ma'naviy xayotining asosiy o'ziga xos jixatiga asarning beshinchi bobiga kelibgina ishora qilinadi. Bu haqdagi fikr Shubinga tegishli luqma-replikada aks ettiriladi: "u axir ajoyib kishilarnigina axtarib topadi" (210 s.). Keyingi bobda Yelenaning izlanishlari "ta'sirchan ezgulik" ehtiyoji bilan bog'lanadi, va bu xususiyatning qudrati shu yerning o'zida ta'kidlanadi: "Ba'zan uning aqliga butun Rossiya hech kim o'ylamagan, hech kim hohlamagan nimanidir istash fikri kelib qolardi" (232 s.). Insarovning ideali – Bolgariyani chet ellik mustamlakachilardan ozod qilish – bu haqida ham o'quvchilar roman boshida, uning Staxovlar xonadoniga paydo bo'lishidan avval xabar topishadi.

Voqealar davomida Shubin, Bersenev, Insarov va Yelena o'z ideallarini o'zaro muloqotlarda va yaqinlari bilan suhbatlarda oshkor qilishadi. Shubin bir jazmanidan boshqasiga yugurib yuradi, Bersenev hatti-xarakati esa har safar uning "ikkinchi" bo'lishiga ishora qiladi. Ijtimoiy sohada bu uning "ilm-fan va Rossiya ahli" o'rtasida nafaol vositachiligida, sevgi borasida Yelena va Insarov o'rtasida aloqachi bo'lib qolishida kuzatiladi. Estet i gedeonist Shubin san'atdan lazzatlanish, tabiat va muxabbatni badiiylashtirib, zavqlanish borasida charchamaydi. Mana o'sha biz yuqorida ta'kidlaganimiz – atoqli otga singdirilgan pragmatik mazmunning namoyon bo'lishi. Bersenev esa, uning sohasi bo'lgan ilm-fan bilan shug'ullanganida ham zavqlanmaydi.

Ma'naviy qarashlarga, e'tiqodga sadoqat Insarov hamda Yelena tabiatiga xos fazilatlaridan. Insarov avvalo "temir inson", u so'ziga amalda rioya qiladi, burch va hissiyotni yodda saqlaydi; bu jixatlar yozuvchining olingi asarlaridagi bosh qaxramonlarda ham mo'jassam edi. Insarovning azaliy va yolg'iz ehtirosiga sadoqati uning qarashlarida, fikr yuritishida aks etadi: "v Insarove pri odnom upominovenii yego rodini ne to chtobi litso yego razgoralos ili golos vozvishalsya - net! no vse sushestvo yego kak budto kreple i stremilos vpered, ochertaniye gub oboznachalos rezche i neumolimye, a v glubine glaz zajigalsya kakoy-to gluxoy, neugasimiy ogon" (25 s.). Tarjimada qaxramon xarakateriga xos bu jixatlar quyidagicha beriladi: "... vatan so'zi tilga olinishi bilanoq Insarovda juda qattiq o'zgarish yuz berishini Bersenev birinchi marta payqadi: uning yuzlari qizarib yoki ovozi ko'tarildi emas - yo'q! Balki butun vujudi tug'yonga keldi va olga intildi, lablarida shijoat va omonsizlik alomati paydo bo'ldi, ko'zlarining ichkarisida allaqanday so'nmas o't chaqnab ketdi." (52 s.). Bu o'rinda ham tarjimon xatosi kuzatiladi: "ochertaniye gub oboznachalos rezche i neumolimye" jumlasini, "lablarida shijoat va omonsizlik alomati paydo bo'ldi" tarzida o'girilishi badiiy matn semantikasidan yiroq; bu jumlaning "lablari keskinlik va shubhasizlik tusini oldi" tarzida yoxud shunga o'xshash betaraf va aniqroq tarzda ta'riflangani ma'qul edi.

Insarov o'zi uchun asosiy vazifalarini uddalash borasida har qanday shaxsiy manfaatlardan, agar ular to'sqinlik qilishsa, hech ikkilanmasdan voz kechishga tayyor edi. Bu holat esa uni Chernishevkiyning o'sha davrlar mashhur bo'lgan romani "Nima qilmoq kerak?"ning qaxramoni Raxmetovga o'xshatib yuboradi. Ularning xayotiy ideallari o'zaro yaqindek ko'rinadi. Faqatgina Yelenaning

bo'lajak kurashlarida barcha qiyinchilik va iztiroblarni birga bo'lishishga roziligini anglab yetgach, Insarov o'zi uchun odat bo'lib qolgan "hech bir qarorini" o'zgartirmaslik fikridan qaytadi, odatini buzadi. Yelenaning ideali va xatti-xarakati o'rtasidagi komil uyg'unlik uning Insarovga nisbatan tuyg'ularining paydo bo'lishi sahnalarida yaqqol kuzatiladi va ular to'liq tabiiy yakunini asarning o'n sakkizinchi bobida, Insarov bilan so'nggi xisoblanishi kerak bo'lgan uchrashuvda ayonlashadi: "Demak, men qayerga borsam sen o'sha yerga boraverasanmi? dedn u chorak soat o'ggach Yelenaga, xamon uni quchog'ida erkalab.

Hamma yerga, dunyoning narigi burchagiga ham boraman. Sen qayerda bo'lsang, o'sha yerda bo'laman." (92 s.)

Atoqli otlarning bu tarzda maqsadli qo'llanishi, xarakterlarning izchillik bilan ibratli yoritilishi badiiy tasvirning muayyan, maqsadli ketma-ketligi, izchilligi bilan kuchaytiriladi. Bosh qaxramonlarning roman matniga shunchaki "navbat bilan" emas, balki ularning e'tiqodlarini ijtimoiy mohiyati, ahamiyati nuqtai nazaridan o'ziga xos o'suvchanlik, progressivlik prinsipiga, tamoyiliga asosan kiritiladi. Asar boshida dastlab Shubin va Bersenevning tavsiflanishi, keyin Yelena portretiga va xarakteri bayoniga o'tilishi, navbati bilan ko'rsatiladigan Insarovdek ongli, qaxramonona naturaning qudrati va maqsadga intiluvchanligini bo'rttirib ko'rsatishga imkon beradi. Bu bilan Shubinning ham, Insarovning ham ideallari tor va ma'lum bir qobiq ichidaligi (ismi pragmatikasidan kelib chiqadigan bo'lsak shubaga-po'stinga o'ralganligi) ta'kidlanadi, I.S.Turgenev muallif sifatida muntazam ravishda asarning asosiy g'oyasiga – sog'lom kuchlarni birlashtirishga – amal qiladi va shu sababli Shubin va Bersenev obrazlarini rivojlantirmaydi. Bu qaxramonlar yozuvchi talqinida roman syujeti asosidagi voqealar sodir bo'lgan davrning, o'z zamonasidagi rus jamiyatining eng yaxshi vakillari bo'lishgan. Har ikkalasi halol va to'g'ri fikrlashga, ilg'or qarashlarga xayrihox bo'lishga qodir. Turgenev o'z asarida bunday kishilarga nisbatan yoqmaydigan qat'iy mulohazalarini aytib o'tadi. Asar yakunida Insarovdan olingan "saboqlar" jarayonida, ularning oldida milliy-davlatchilik darajasida faoliyat olib borish istiqboli o'z eshiklarini ochadi; muallif o'z navbatida bu "saboqlar" yordamida rus hamjamiyatining eng ilg'or qarashli ongli qismiga murojaat etib, vatanparvarlik va ozodlik g'oyalaridan bahramand bo'lishga undaydi.

Romanda sanab o'tilgan, "gapiruvchi" ism-shariflar sohibi bo'lgan asosiy to'rt qaxramondan tashqari yana ellikka yaqin atoqli otga ega personajlar qatnashadi yoki tilga olinadi. Ular sirasiga Yelenaning otasi Nikolay Artemyevich Staxov, uning "qaramog'ida" bo'lgan – Avgustina Xristianovna, Yelenaning onasi Anna Vasilyevna, qandaydir Marya Petrovna, knyaz Chikurasovlar, knyaz Ardalion Chikurasov, Avgustina Xristianovning amakisini qizi Feodolinda Xristianovna, Zoya Nikitichna Myuller, Annushka, qizcha Katya, graf fon Kizerits, ober –sekretar Kurnatavskiy Yegor Andreyevich, Vanka oshpaz, Marya Bredixina, Karolina Fogelmeyer, Rendich, graf Bobinkin, Uvar Ivanovich Staxov, senator Volgin va boshqalar kiradi.

Sanab o'tilgan onamopoetik birliklar, atoqli otlardan bir qanchasining pragmatik mazmuni "Arafa" romanining bosh g'oyasi bilan uzviy bog'lanib ketgan bo'lib, badiiy matndagi epizodik ko'rinishiga qaramasdan juda muhim va e'tiborga molik pragmatik ahamiyat kasb etadi. Masalan, Volgin –bu rus adabiyotida daryo nomlari bilan aloqador, u Pushkinning Oneginidan boshlangan ismlar an'anasi davomi bo'lib, Turgenev romanida faqat epizodik ko'rinishga ega bo'ladi. Uning zamirida chuqur yashirin bo'lgan vatanparvarlik, rus xarakateri kabi tushunchalar berkitilgan bo'ladi.

Staxovlarning qarindoshlaridan birini ismi Uvar bo'lib, ilk nasriy asarlarida ham uchraydi va taxminan "qiyshiq oyoq" ma'nosini bildiradi.

I.S.Turgenevning bu yangi romani o'z davrining asosiy vaqtli matbuoti nashrlarida turli-tuman, ba'zan o'zaro ziddiyatli mazmundagi qizg'in bahslarga sabab bo'ldi. "Arafa" nomanining eng jiddiy va chuqur tahlilini N.Dobrolyubov o'zining "Haqiqiy kun qachon keladi?" ("Kogda je pridet nastoyashiy den?") maqolasida amalga oshiradi.[10] Olim

Yelena obrazining tipikligini ta'kidlab, uning paydo bo'lishiga mavjud muhit sabab bo'lganligini ko'rstadi. Shu bilan birga bu Rossiyada yangi ijtimoiy kuchlarning paydo bo'layotganligini dalolatidir. Tez orada "haqiqiy" kunlar yetib keladi va ichki "dushmanga" qarshi kurash boshlanadi. Dobrolyubov maqolasining yashirin mazmuni shundan iborat edi. Turgenev bu ishoralarga ko'nmaydi va Dobrolyubov o'z maqolasini chop etgach "Sovremennik" jurnalining tahririyatidan ketadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Щерба Л. В. Избранные работы по русскому языку. / ред. М. И. Матусевич; Акад. наук СССР, Отд-ние лит. и яз. - М.: Учпедгиз, 1957. - 186 с. Манба: [http://elib.bu.ru/text/scherba\\_izbrannye-raboty-russkomu-yazyku\\_1957/](http://elib.bu.ru/text/scherba_izbrannye-raboty-russkomu-yazyku_1957/)
2. Крипке С. Витгенштейн о правилах и индивидуальном языке / Перевод В. А. Ладова, В. А. Суровцева / Под общей редакцией В. А. Суровцева. — М.: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2010. — 256 с.
3. Бем А. Л. Личные имена у Достоевского // Сборник в честь на проф. П. Милетич за седемдесет годишнината отъ рождението му (1863-1933). София, 1933. С. 415. Қаранг:С://Babac^// Slovanska knihovna// Web//P
4. Тургенев И.С.. Собрание сочинений в 10 т.Т.3.-М.:ГИХЛ:1961.-С.7
5. Петровский Н.А.. Словарь русских личных имен. Изд.-3.- М.: Русский язык.1984.- Матнда қуйидагича берилди: (Петр.,С.)
6. Тургенев И.С.. Собрание сочинений в 10 т.Т.3.-М.:ГИХЛ:1961.-С.15. Quyida original matn shu nashrdan iqtibos qilinadi va qavs ichida sahifasi ko'rsatildi.
7. Лотман Л.М.. И.С.Тургенев. В кн: История русской литературы в 4т.-Т.3.Л.:Наука ,1982.-С.142.
8. Тургенев И.С. Арафа.Роман. Рус тилидан Й. Шамшаров таржимаси. Такрорий нашр.-Тошкент, Ўзбекистон, 2019.- 344 с. Iqtiboslar ushbu nashrdan olindi. Qavs ichida sahifasi ko'rsatildi. [https://royallib.com/book/turgenev\\_ivan/nakanune.html](https://royallib.com/book/turgenev_ivan/nakanune.html). Elektron nashr. Murojaat sanasi: 03.09.2025. Qavs ichida sahifasi ko'rsatildi.
9. Тургенев И.С. Накануне. Роман. <https://royallib.com/book/turgen-ivan/nakanune.html>. Elektron nashr. Murojaat sanasi: 03.09.2025. Qavs ichida iqtiboslar sahifasi ko'rsatildi.Қаранг: <https://ru.wikisource.org/wiki>. Мақола ilk marta «Sovremennik» jurnalida chop etilgan: 1860, No III, otd. III.- 31-72 s.